

# Akademik Sa'di Sirojiddinov xotirasiga bag'ishlangan konferensiya

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida atoqli mashhur matematik olim Sa'di Hasanovich Sirojiddinov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan "Stoxastik tahlilning zamonaviy muammolari" mavzusidagi ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiya ishida 100dan ortiq mutaxassislar, shu jumladan, Rossiya, Ukraina, Ozarbijon va Gruziyadan 10dan ortiq olimlar ishtirok etdilar va ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashdilar. Konferensiya ochilishida O'zR FA Matematika instituti, direktori akademik Sh.A.Ayupov, akademiklar Sh.K.Farmonov, A.Azamovlar S.H.Sirojiddinovning O'zbekistonda ilm-fanni rivojiga, yuqori malakali kadrlarni yetishtirishga, yoshlar tarbiyasiga, Respublikamizda matematika bo'yicha olimpiadalarni tashkil etishga qo'shgan ulkan hissi to'g'risida ma'ruza qildilar.



Konferensiya ishida taniqli olimlardan tashqari Matematika institutining, Respublikamiz OTMLarining ko'plab yosh olimlari, tayanch doktorantlari va O'zbekiston milliy universitetining matematika yo'nalishi magistrantlari qatnashdilar va ma'ruzalar qildilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kundagi informatsion texnologiyalar juda katta imkoniyatlarga, qulayliklarga egaligini, olimlarimizni jahon hamjamiyatiga chiqish imkoniyatlari vujudga kelganini, olimlarimizni chet ellik mutaxassislar bilan bevosita aloqa qila olishini bo'lib o'tgan konferensiya yaqqol namoyon qildi.

Ma'lumot o'rnida, S.H.Sirojiddinov — fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi akademigi, Davlat mukofotlari laureati, mamlakatimiz va chet ellar matematiklari orasida ehtimollar nazariyasi, matematik statistika va ularning tadbiqlari, matematik analiz, O'rta Osiyoda matematikani rivojlanish tarixi sohalaridagi tadqiqotlar muallifi sifatida tanilgan.

S.H.Sirojiddinov mohir pedagog va jonkuyar fan tashkilotchisi sifatida mamlakatimiz uchun ko'plab matematiklarni, jumladan, 10dan ortiq fan doktorlarini va 50ga yaqin fan nomzodlarini tarbiyalab yetishtirgan va yana ham ko'proq matematik olimlar shakllanishida rahnamolik qilgan.